

Normatov Jamoliddin

Guliston davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi yo'nalishi 1 - kurs magistranti

HUSAYNIY IJODINING O'RGANILISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Temuriylar sulolasi vakili, davlat arbobi va shoir Husayn Boyqaroning (taxallusi – Husayniy) hayoti va adabiy merosi tahlil etiladi. Vosifiy, Roqimiy va boshqa tarixiy manbalardagi ma'lumotlar asosida Husayn Boyqaroning shaxsiy fazilatlari, ma'naviy olami va adabiy ijodining tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Husayn Boyqaro, Husayniy, "Devoni Husayniy", Alisher Navoiy, Vosifiy, "Badoye' ul-vaqoye'", "Tarixi kasira", Roqimiy, Hirot, Temuriylar

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ХОСЕЙНИ

Аннотация: В статье анализируется жизнь и литературное наследие Хусейна Байкара (псевдоним - Хусайни), представителя династии Тимуридов, государственного деятеля и поэта. На основе сведений Васифи, Раками и других исторических источников проведен анализ личных качеств, духовного мира и литературного творчества Хусейна Байкара.

Ключевые слова: Гусейн Байкара, Гусейн, «Дивани Гусейн», Алишер Навои, Васифи, «Бадое ул-вакоёе», «Тарихи Касира», Раками, Герат, Тимуриды.

STUDY OF HOSSEINI'S WORKS

Abstract: The article analyzes the life and literary heritage of Hussein Baykara (pseudonym - Husseini), a representative of the Timurid dynasty, a statesman and a poet. Based on the information of Wasifi, Raqimi and other historical sources, an analysis of the personal qualities, spiritual world and literary works of Hussein Baykara was carried out.

Keywords: Huseyn Baykara, Huseyn, "Divani Huseyn", Alisher Navoi, Wasifi, "Badoe ul-vakoye", "Tarihi Katira", Raqimi, Herat, Timurids.

Kirish .Husayn Boyqaro – o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida o'zining betakror, ravon uslubda yozilgan g'azallari bilan alohida o'ringa ega bo'lgan ijodkorlardan biridir. Husayniy taxallus bilan ijod qilgan Husayn Boyqaro (1438-1506) Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon naslidan bo'lib, Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaroning o'g'lidir. U 1438-yilda Hirot shahrida tavallud topgan. Husayn Boyqaro uzoq davom etgan kurash va olishuvlardan keyin 1469-yilda Hirot taxtini egallaydi. Sulton Husayn Boyqaro davrida Hirot butun sharqda ilm, san'at va adabiyotning yashnagan markaziga aylandi. Alisher Navoiy boshchilik qilgan, Husayn Boyqaro xayrixohlik bilan qaragan Hirot madaniy muhitida mashhur tilshunoslar va tarixchilar, xattot vakotiblar, bastakor va xonandalar, musavvirlar va naqqoshlar, sozanda va hofizlar, faylasuf vamusiqashunoslar, shoir va adiblar ijod qilardilar. Zahiriddin Muhammad Bobur tili bilan aytganda, "Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim, bir ishga mashg'ullug'i bor edi, himmati va g'arazi ul erdikim, ul ishni kamolg'a tegurgay. [1: 239-240] Biz ushbu maqolamizda Husayn Boyqaroning hayoti va ijodining o'rganilishi xususida so'z yuritishni joiz deb topdik.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Husayn Boyqaro hayoti va ijodi bugungi kunda ko'plab tarixiy, adabiy, shuningdek, manbashunoslik asosida olib borilgan tadqiqotlarda keng yoritilgan. Jumladan, Zayniddin Muhammad Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'" asari – bu davr adabiy va madaniy muhitining, xususan, Husayn Boyqaro shaxsiyatining jonli guvohidir. Asarda Husayn Boyqaroning sadoqatli do'sti Alisher Navoiy bilan bo'lgan munosabatlari, sultonning madaniyat va san'atga bo'lgan e'tibori, odob-axloqi, tafakkuri va shaxsiy fazilatlarini batafsil tasvirlangan. Bu manba tadqiqotchi uchun beqiyos axborot beradi, ayniqsa, sultonning ichki dunyosi va madaniy siyosatini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tarixchi Sayyid Sharif Roqimiyning "Tarixi kasira" (yoki "Tarixi tomm") asari ham Husayn Boyqaro haqida muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Bu asar faqatgina tarixiy voqealar ketma-ketligi emas, balki shaxslararo munosabatlar, siyosiy harakatlar va madaniy muhitni o'rganishda manbashunoslik asosida tahliliy material hisoblanadi. Biroq ushbu asarning tarjima va nashrga tayyorlangan nusxasi ba'zi hollarda nomukammal bo'lib, matnshunoslik nuqtayi nazaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishni talab etadi. "Devoni Husayniy" esa Husayn Boyqaroning shoir sifatidagi iste'dodini ifoda etuvchi badiiy manbadir. Uning g'azallari orqali sultonning nafaqat siyosiy, balki ichki kechinmalar, muhabbat, hijron, go'zallikni anglash kabi lirik motivlari ochib beriladi. Qo'lyozmaning bezaklari, xattotlik uslubi va badiiy qiymati uni o'z davrining yuksak san'at namunasi sifatida ko'rsatadi. Mazkur devon Sankt-Peterburgdagi qo'lyozma asosida faksimile shaklida nashr etilishi orqali O'zbekiston madaniy merosini asrash va ommalashtirishda muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu maqolani yozishda tarixiy-tahliliy, manbashunoslik, adabiy-tanqidiy hamda taqqosloviy metodlardan foydalanildi. Avvalo, Husayn Boyqaro hayoti va ijodi bilan bog'liq tarixiy manbalar, xususan "Badoye' ul-vaqoye'" va "Tarixi kasira" asarlari asosiy tadqiqot obyekti sifatida tanlandi. Bu asarlarda keltirilgan ma'lumotlar ichki izchillik asosida saralandi, voqealar ketma-ketligi o'rganildi.

Shuningdek, "Devoni Husayniy"dagi g'azallar poetik jihatdan tahlil qilinib, ularning mazmuniy yo'nalishi, badiiy uslubi va leksik jihatlari o'rganildi. Qo'lyozma nusxasining bezaklari, xattotlik san'ati va tarixiy ahamiyatini o'rganishda matnshunoslik va kodikologiya yondashuvi qo'llanildi. Bundan tashqari, Alisher Navoiy bilan bo'lgan munosabatlar Vosifiy va boshqa tarixiy manbalar asosida taqqoslab tahlil qilindi. Bu metodlar orqali Husayn Boyqaroning shaxsiyati ko'p qirrali va kompleks tarzda ochib berilishi maqsad qilindi.

Natijalar va muhokama. Mashhur shoir va adib Zayniddin Muhammad Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'" [2] asarida Sulton Husayn davridagi adabiyot, madaniyat va ilm-fan arboblari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Kitobning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi boblarida Husayn Boyqaroning hayoti va faoliyati, Sulton Husayn hukmronligi yillarida Hirotning ulug'vorligi, Pahlavon Muhammad va Husayn Boyqaro munosabatlari, Shayboniyxon bosqini davrida Husayn Mirzo oilasining ahvoli, Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi sadoqatli do'stlik haqida qiziqarli hikoyalar ko'p. Xususan, Zayniddin Vosifiy Husayn Boyqaroning o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, nabiralari va xazinani dushmandan qutqarganini, ularni suvdan olib chiqqanini tasvirlaydi. Xuroson hukmdorining tadbirkorligi, sezgirligi, donishmandligi, insonparvarligini o'rganishda yozuvchining xotiralari - "Husayn Boyqaro va aldoqchi kimyogar," "Husayn Boyqaro va uning Shotiri," "Husayn Boyqaro va Pahlavon Muhammad" hikoyalari katta ahamiyatga ega.

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy do'stligi qirq yillik tarixga ega. Husayn Mirzo eng og'ir vaziyatlarda ham o'z manfaatlariga zid ravishda Navoiy sha'nini himoya qildi. "Badoye' ul-vaqoye'"dagi "Husayn Boyqaro va uning Shotiri" hikoyati bunga dalil bo'la oladi.

Pahlavon Muhammad Husayn Boyqaro qabulidan chiqib, Shotir huzuriga ketadi. Sulton Husayn yarim kechada saroy ayonlari bo'lgan o'g'illarini yig'ib, pahlavonni saroy oldida masxaraboz sifatida otboqar shotir kiyimida yurishga buyuradi. Odatda, shoir maxsus bosh kiyimda yurar,

soqol-mo'ylovini qirib, maxsus poyabzal kiyib, ishtonining beliga qo'ng'iroqchalar bog'lab yurardi. Shu payt saroyga otda Navoiy ham keladi. Voqeadan xabar topib, Husayn Boyqarodan so'raydi: - Podshohim! Pahlavon Muhammad bilan umr bo'yi bir xil kiyimda yurishga qasam ichganmiz. Buyuring, menga ham shotira kiyimlarini olib kelishsin. Hayron bo'lgan Husayn Boyqaro o'z farmonini bekor qiladi, hamma tarqaladi. Pahlavon Muhammad sharmandalikdan qochadi. Bularning barchasi Xuroson hukmdorining sodiq do'sti sha'nini o'z sha'nidan ustun qo'yg'anligidan dalolat beradi.

Husayn Boyqaro haqida qo'shimcha ma'lumot beruvchi yagona manba bugungi kunda shoir va tarixchi Sayyid Sharif Roqimiy tomonidan yaratilgan "Tarixi kasira" yoki "Tarixi tomm" asaridir. [3] XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida yashab ijod etgan olim va adib Sharafiddin Roqimiy asli andijonlik bo'lgan. Yoshligida Samarqandga o'qishga kelgan, keyinchalik Toshkentda yashagan.

Bizgacha yetib kelgan "Tarixi kasir" asari 1998-yilda "Fan" nashriyotida sharqshunos olimlar Haydarbek Bobobekov va Naimjon Norqulovlar tarjimasida "Tarixi tomm" nomi bilan chop etilgan. Unda Kassir, Movarounnahr, qisman Hindistondagi tarixiy voqealar sanalari, u yoki bu shohning hukmronlik davrlari, Amir Temurdan Abdullaxongacha bo'lgan davrda uning tug'ilishi va vafoti, Mir Arab madrasasi kabi mashhur binolar tarixi keltiriladi. Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida kitobning o'ndan ortiq qo'lyozma nashrlari saqlanadi. Ularning hajmi 190 dan 281 betgacha. Barcha qo'lyozmalar yaxshi saqlangan. Uning eng mukammal nusxasi XVII asr oxirida yaratilgan 9980 inventar raqamli qo'lyozmadir [4].Biz o'z ishimizda "Tarixi kasir"ning aynan shu nusxasiga tayandik, chunki tarjimada Amir Temur farzandlari, boshqa temuriylar, xususan, Husayn Boyqaro va uning farzandlari tarixi haqida ma'lumot yo'q. Ko'rinadiki, tarjimonlar asarning nomukammal nusxasi bilan ishlagan.

Bundan tashqari 1995 yili adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov va tarix fanlari doktori SHodmon Vohidovlar «SHoh va shoir Husayn Boyqaro» kitobini chop etishdi. Undan Husayn Boyqaroning falsafiy mavzudagi "Risola"si hamda devoni o'rin olgan. Tadqiqotchilar bu kitobga Husayn Boyqaro devonining 1968 yilda Qobulda Muhammad YA'qub Juzjoniy tomonidan nashr qilingan nusxasini asos qilib olishgan.«Devoniy Husayniy»ning yani bir nusxasi ayni paytda Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburg shahridagi SHarq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda. 284-raqam ostidagi ushbu qo'lyozma nasta'liq xatida, sifatli qog'ozda ko'chirilgan va shohona bezaklar berilgan. Sahifalariga oltin zarralari sepilgan.Devonda o'ta mahorat bilan ishlangan to'rtta miniatyura, nafis naqshlardan hosil qilingan ikkita zarvaraq, Husayn Boyqaroning turli davrlarda bitilgan 154 ta g'azali (shundan ikkita g'azali to'liq emas) o'rin olgan.Ushbu to'plam garchi «Devoni Husayniy» deb nomlangan bo'lsa-da, u devon talablariga to'la-to'kis javob bermaydi [5].Zero, devon uning umumiy mazmuni, muallifi, yaralish sabablari haqida qisqacha ma'lumot beruvchi debocha, arab alifbosi asosida tartibga solingan turli janrga oid she'riy asarlardan iborat bo'lishi lozim edi.Ma'lumotlarga ko'ra, kitob Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning hayotlik chog'larida, 1490 yillarda bitilgan. Ayrim g'azallar to'la yozilmaganiga qaraganda, ushbu to'plam tuzilgan chog'da bu g'azalar hali tugallanmagan bo'lgan. Qolaversa, 1968 yili Qobulda nashr qilingan devondagi ellikka yaqin g'azal bu to'plamdan o'rin olmagan.Bundan xulosa qilish mumkinki, to'plam hali Husayn Boyqaro devon tartib qilib ulgurmagani bir paytda, nedir munosabat bilan shoshilinch tarzda tuzilgan. G'azallar matnidagi ayrim imloviy xatolar, ba'zi so'zlar va baytlar (ehtimol ular keyinchalik qo'shilgandir)ning tushirib qoldirilgani ham shundan dalolat beradi.

Xulosa .Husayn Boyqaro nafaqat mohir siyosatchi, balki yuksak iste'dodli shoir sifatida ham o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi. Uning "Devoni Husayniy"da jamlangan g'azallari orqali shaxsiy kechinmalar, muhabbat, go'zallik va hijron kabi lirik motivlar ifodasi topgan. Sulton Husaynning Alisher Navoiy bilan bo'lgan do'stligi, adabiyot va madaniyatga

bergan e'tibori Vosifiy va Roqimiy asarlarida yorqin aks etgan. Mazkur maqola orqali Husayn Boyqaroning hayoti, adabiy merosi va tarixiy shaxsiyati ilmiy asosda tahlil etilib, u haqida tadqiqot olib borishda ishonchli manbalar va zamonaviy metodlar qo'llanilgan. Bu esa uni nafaqat tarixiy, balki badiiy-madaniy meros nuqtayi nazaridan ham chuqur o'rganishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobur. "Boburnoma". Toshkent, 1960, 239-240 -betlar
2. Васифий. Бадоеъ ул-вақое: Изд. Г.Гуляма. Ташкент: 1987.
3. Тарихи томм (Истинная история) инв. № 9980. Рукописный фонд института востоковедения имени Бируни.
4. Роқимий. Тарихи томм. Ташкент: Маънавият. 1998.
5. Zohidov I. Husayn Boyqaro – shoir va davlat arbobi. – Toshkent: Fan, 1999. – 260 b.